

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR
IJODKORLIK TASSAVURLARINI SHAKILLANTIRISHDA
QO'G'IRCHOQ TEATRINING AHAMIYATI**

Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lif fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni badiiy va ijodiy faoliyatda ijodkorligini teart orqali shakillantirish haqida so'z yuritilgan. Yosh bolalarni yoshligidan ijodkor qilib tarbiyalash bu yo'lda maktabgacha ta'lif tashkiloti, tarbiyachi hamda ota-onalar hamkorlikda ishlash kerakligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy qobiliyatlar, individual, ideal, teatr, sahna, kompleks, ijodkorlik, tasavvur, qobiliyat, mantiqiy fikrlash, tafakkur.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о формировании творческих способностей детей дошкольного возраста в художественно-творческой деятельности средствами театра. Сказано, что дошкольная образовательная организация, воспитатели и родители должны работать вместе, чтобы творчески воспитывать маленьких детей с самого раннего возраста.

Ключевые слова: Творческие способности, личность, идеал, театр, сцена, комплекс, творчество, воображение, способность, логическое мышление, мышление.

ABSTRACT

This article talks about shaping the creativity of children of preschool age in artistic and creative activities through theater. It is said that preschool educational organization, educators and parents should work together in order to raise young children creatively from a young age.

Keywords: Creative abilities, individual, ideal, theater, stage, complex, creativity, imagination, ability, logical thinking, thinking.

"Iqtidorsiz bolalar yo'q. Barcha bolalar mukammal tug'iladi. Bolalar tarbiya va muhit mahsuli bo'lib, ota-onalarining iste'dodini meros qilib olmaydilar. Bolani muhit va tarbiya shakllantiradi. Tug'ma moyillik yoki irsiyatga kelsak, faqat organizmning

fiziologik xususiyatlari meros qilib olinadi. Tug‘ilgan paytdan boshlab hamma narsa faqat atrof-muhitning bolaga bo‘lgan psixologik ta’siriga bog‘liq. Faqat bu uning barcha qobiliyatlari va iste’dodlarini belgilaydi.

Shinichi Suzuki

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaratilgan shart sharoitlar, ushbu tizim uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va o‘yinchoqlar bilan muntazam ta’minlanib borishining davlat nazoratida bo‘lishi kishini quvontiradi. Maqsad esa bitta bolalarni barkamol tarzda voyaga yetkazish ularni maktab ta’limiga tayyorlash samaradorligini oshirishdir. Maktabgacha yosh - bu o‘zini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri “Ijodkor bolani” tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasи shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas.

Teatr (yun. *theatron* — tomoshagoh) — san’at turi; uning o‘ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o‘yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san’atida ham boshqa san’atlarda bo‘lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og‘zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi.

Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (tarbiyachilar, oila do‘srtlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko‘proq ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lgan “ideal qahramon” bo‘lsa, ayniqsa samarali bo‘ladi. Aslini olganda “Ijodkorlik” - bu har xil turdagи ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda tasavvurini shakillantirishda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati juda ham kattadir. Agarda yosh bolalar qo‘g‘irchoqlarni tarbiyachi boshchiligidida o‘z qo‘li bilan yasab aynan usha qo‘g‘irchoq orqali qo‘g‘irchoq tetrini sahnalashtirsalar avvalo ularda mehnat tarbiyasi shakillanadi. Har bil yosh bolada ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmas o‘ziga xos iqtidori mavjudir. Tarbiyachi qo‘g‘irchoq teatrini sahnalashtirish jarayonida ertak qahramonlari niqobini stol ustiga quyadi va tarbiyalanuvchilardan ulardan birini tanlashlarini so‘raydi. Tarbiyalanuvchilar albatta o‘zları yaxshi ko‘rgan qahramonlarni ayrimlari esa o‘zi anglamagan holatda bron qahramon niqobini tanlaydilar. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari aynan shu yerda bola qaysi qahramonni rolini qoyilmaqom qilib ijro etishini bilib olsalar ham bo‘ladi.



Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya’ni maktabgacha yoshdagagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berish tavsiya etiladi. Ijodkorlik ko‘plab fazilatlarning birlashuvidir.

Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, maktabgacha yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy qibiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilgandan so‘ng, xulosa qilishimiz mumkinki, ularni aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar farqiga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash sifatini ijodiy qibiliyatlarning muhim tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko‘rsatishadi. Shundan kelib chiqib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash mumkin

1. tasavvurni rivojlantirish;
2. ijodkorlikni shakllantiruvchi tafakkur sifatlarini rivojlantirish.

Bolalarning ijodiy rivojlanishining muhim sabablaridan biri ularning ijodiy qibiliyatlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. PQ-3261 09.09.2017 Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risidagi qaror.
2. “Maktabgacha pedagogika” F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M. Kayumova,
M.N. A’zamova. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T. 2019
3. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
4. Z.S.Teshabayeva “Bolalarni sahnallashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” Toshkent 2021
5. O‘yin orqali ta’lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
6. S.X. Jalilova, S.M. Aripova “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” Toshkent 2017
7. Z. Nishanova, G. Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” Toshkent 2006